



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI REKTORI
BUYRUG‘I

29.10.2025-yil

№ 259-A

Denov tumani

**O‘zbekiston Respublikasi oliy talim, fan va
innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 28-oktyabrdagi
01/15-4560 -son xati ijrosi to‘g‘risida**

**“Talabalar ligasi” sport musobaqalarining 2025-2026 o‘quv yilidagi yangi bosqichiga
tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish maqsadida**

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida **2023-yil 11-aprel** kuni “Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlari, Prezidentning “2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **2023-yil 8-maydagi PQ-150-son** qarori, Prezidentning “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son** qarori, Prezidentning “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881- son** qarori, Prezidentning “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **2024-yil 19-iyuldagi PQ-274-son** qarori, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida **2024-yil 28-iyun** kuni faol va tashabbuskor yoshlar bilan o‘tkazilgan uchrashuv videoselektor yig‘ilishining **31-sonli bayoni**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **2024-yil 4-dekabrdagi PQ-421-sonli** qarorida belgilangan topshiriqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sport vazirligi, O‘zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi, O‘zbekiston badminton federatsiyasi, O‘zbekiston basketbol federatsiyasi, O‘zbekiston voleybol federatsiyasi, O‘zbekiston gandbol federatsiyasi, O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi, O‘zbekiston kurash federatsiyasi, O‘zbekiston stol tennisi federatsiyasi, O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi, O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi, O‘zbekiston regbi Federatsiyasi, O‘zbekiston aquatics federatsiyasi, O‘zbekiston chim ustida xokkey federatsiyasi bilan birgalikda 2025-yil 15-avgustdagi 1/15-421-Q/Q-sonli Qo‘shma qarorlar, hamda O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 28-oktyabrdagi 01/15-4560-son xati ma’lumot va ijro ushun qabul qilinsin.

2. Sportning **badminton, basketbol, voleybol, gandbol, engil atletika, kurash, stol tennisi, futbol (futzal), shaxmat**, turlari bo'yicha "**Talabalar ligasi**" nizomlari asosida fakultetlari (yo'nalishlar) o'rtasida institut bosqichi(1-bosqich) musobaqalari 2025-2026 o'quv yilining noyabr-mart oylari davomida o'tkazilsin.

3. Musobaqalarning institut bosqichi g'oliblarini taqdirlash, hamda viloyat va Respublika bosqlarida ishtirok etish bilan bog'liq sarf-xarajatlar institut sport klubi tomonidan qoplatilsin.

4. "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrası (**D.Nosirova**), Institut sport klubi (**S.Jurayev**)

-institutning moddiy-texnika bazasidan kelib chiqib, badminton, basketbol, voleybol, gandbol, yengil atletika, kurash, stol tennisi, futbol (futzal), shaxmat turlari bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi seksiyalar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda sport mashg'ulotlari jadvalini shakllantirish;

-mavjud sport inshootlari va maydonlarni, xonalarni doimiy faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

-badminton, basketbol, voleybol, gandbol, yengil atletika, kurash, stol tennisi, futbol (futzal), shaxmat bo'yicha jamoalarini shakllantirish hamda ularning "Talabalar ligasi" dasturi doirasida o'tkaziladigan viloyat va respublika musobaqalarida to'liq ishtirok etishini ta'minlash;

-sport klubini moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va trener-o'qituvchilar bilan ta'minlash, bu borada Sport vazirligi, sport federatsiyalarining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda mazkur sporti turlariga tajribali va malakali trenerlarni jalb etish;

-sport turi bo'yicha belgilangan tartibda kerakli jihozlar bilan ta'minlash choralari ko'rish, talabalarning xohish va istaklarini inobatga olgan holda seksiyalarga jalb etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

-o'quv mashq jarayonining sifati ustidan nazorat qilish, sport mashg'ulotlari muntazam o'tkazilishi va talaba-o'quvchilar qatnovi darajasi monitoringini tizimli asosda olib borishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Reja moliya bo'limi (**R.Xalimov**)

-sport musobaqalari oliy ta'lim muassasalari sport klublari o'rtasida o'tkazilishini inobatga olib, sport klubini moliyalashtirish oliy ta'lim muassasasining yillik sarf xarajatlari smetasiga kiritish vazifasi yuklatilsin

6. Bosh buxgalter F.Valixonov zimmasiga:

Institut sport klubini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tomoyillarini joriy etish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-son qaroriga muvofiq o'z vaqtida to'liq moliyalashtirib borsin.

7. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor **A.Mengliboyev** zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 28-oktyabrdagi 01/15-4560-son xati.

Rektor



O.Ruziyev